

## **Bo'limning vazifa va funksiyalari**

1. Mablag' bilan ta'minlanish manbalaridan qat'iy nazar, vazirlikning hududiy va tarkibiy tuzilmalari moliya xizmatlari ish faoliyatini, ya'ni byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishini, shuningdek, sotilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar (ish) uchun pul mablag'larining hisob-kitob qilinishini o'rganish hamda tekshirish;

pul mablag'lari va moddiy-tovar boyliklarining kamomadi, byudjet va smeta-shtat intizomi buzilishining boshqa hollarini aniqlash hamda shu holatlarni yuzaga keltiruvchi sharoit va sabablarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

tekshiruv o'tkazilayotgan tuzilmalarda buxgalteriya hisobi, byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya qilinishi ustidan joriy va tezkor nazoratni tashkillashtirish, pul mablag'lari va moddiy boyliklarning saqlanishi hamda xarajatlar smetasining tuzilishi va ijrosi, byudjetdan tashqari mablag'larning shakllantirilishi, ulardan maqsadli foydalanish, shuningdek, moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish.

2. a) mablag' bilan ta'minlanish manbalaridan qat'iy nazar, tuzilmalar moliya xizmatlari ish faoliyatini, ya'ni byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishini, shuningdek, sotilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar (ish) uchun pul mablag'larining hisob-kitob silinishini o'rganish hamda tekshirish sohasida:

MNB hujjatli tekshirishlar o'tkazish huquqini beruvchi vakolatnomani vazirga imzolotadi;

MNB tuzilmalar moliya xizmatlari ish faoliyatini, ya'ni byudjet va smeta-shtat intizomiga, shuningdek, moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha tasdiqlangan rejaga muvofiq qonun hujjatlariga rioya etilishini moliyaviy nazorat qiladi;

buxgalteriya hisobining to'g'ri tashkil etilishi va moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risidagi hisobotlarning ishonchligini o'rganadi hamda tekshiradi;

avvalgi tekshiruvlarda aniklangan qonunbuzilishlarning bartaraf etilishini nazorat tartibida tekshiradi;

tekshiruvni ikki yilda bir martadan kam bo'lmagan xamda 30 kun muddatdan oshmagan holda amalga oshiradi;

tekshirish natijalarini umumlashtirish, ular bo'yicha vazirlik rahbariyatiga axborot, hisobot, ma'lumotnoma kiritish va o'tkazilgan tekshiruvlar yuzasidan vazir xulosa hamda buyruq loyihalarini tayyorlaydi;

aniqlangan xarakterli hukukbuzarliklar bo'yicha tekshirishlar materiallarini umumlashtirish hamda kelgusida ularni bartaraf etish va oldini olishga doir vazirlikning tegishli xizmatlariga chora-tadbirlar belgilash yuzasidan takliflar tayyorlaydi va taqdim etadi;

tekshiruv natijasida aniklangan zararni amaldagi qonun hujjatlariga asosan koplanishi yuzasidan taklif kiritadi.

b) tekshiruv o'tkazilayotgan tuzilmada buxgalteriya hisobi, byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya silinishi ustidan joriy va tezkor nazoratni tashkillashtirish, pul mablag'lari va moddiy boyliklarning saqlanishi hamda xarajatlar smetasining tuzilishi va ijrosi, byudjetdan tashqari mablag'larning shakllantirilishi, ulardan maqsadli foydalanish, shuningdek, moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish sohasida:

buxgalteriya hisobining to'g'ri tashkil etilishi va moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risidagi hisobotlarning ishonchliligini o'rganish hamda tekshirish;

MNBning vakolatiga kiruvchi taxliliy, axborot va metodologik ishlarni amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning ariza, taklif va shikoyatlarini MNBning vakolati doirasida ko'rib chiqish;

vazir topshirigiga asosan alohida hollarda xizmat tekshiruvda ishtirok etish.